



THE INSTITUTION OF GENUINE REMORSE: PROSPECTS FOR IMPROVEMENT

Nurjakhon Mirzaabdulloyevna Khujayeva

Inspector of the Rishton District Prosecutor's Office

E-mail: nurjahonxujayeva46@gmail.com

Ferghana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: crime, liability, exemption from liability, remorse, confession.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: In criminal legislation, apart from punishing an offender, it is also possible to exempt a person from liability on the basis of the principle of humanism, in accordance with the requirements established by criminal law. A person who has committed a minor or less serious crime for the first time may be released from liability if he or she has confessed, sincerely repented, actively assisted in uncovering the crime, and compensated for the damage caused. This article analyzes the procedure for exemption from liability due to genuine remorse in national legislation, evaluates the effectiveness of this legal institution, reviews the mechanisms applied in advanced foreign countries, and develops proposals for improving national legislation on this basis.

JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHDA AMALDA PUSHAYMONLIK: TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Nurjahon Mirzaabdulloyevna Xo'jayeva

Rishton tuman prokuraturasi noziri

mail: nurjahonxujaeva46@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jinoyat, javobgarlik, javobgarlikdan ozod qilish, pushaymonlik, aybni bo'yninga olish.

Annotatsiya: Qonunchilikda jinoyat sodir etgan shaxsni jazolashdan tashqari uni insonparvarlik tamoyili asosida jinoyat qonuni bilan belgilangan talablarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir

bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Ushbu maqolada qonunchilikda aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish tartibi, ushbu institutning qo'llanilish samarasi hamda ilg'or xorijiy davlatlarda qo'llanilish mexanizmi to'g'risida mulohaza oqilish orqali olib borilgan tahlillar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish to'g'risida mulohaza olib borilgan hamda takliflar ishlab chiqilgan.

ИНСТИТУТ ДЕЯТЕЛЬНОГО РАСКАЯНИЯ: ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Нуржаҳон Мирзаабдуллоевна Ходжаева

Инспектор Риштанской районной прокуратуры

e-mail: nurjahonxujaeva46@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: преступление, ответственность, освобождение от ответственности, раскаяние, признание вины.

Аннотация: В уголовном законодательстве, помимо наказания лица, совершившего преступление, возможно освобождение его от ответственности на основе принципа гуманизма в соответствии с требованиями, установленными уголовным законом. Лицо, впервые совершившее преступление, не представляющее большой общественной опасности либо менее тяжкое преступление, может быть освобождено от ответственности, если оно заявило о признании своей вины, искренне раскаялось, активно способствовало раскрытию преступления и возместило причиненный ущерб. В данной статье рассматривается порядок освобождения от ответственности в связи с действительным раскаянием, анализируется эффективность применения данного института, изучаются механизмы его реализации в передовых зарубежных странах, а также выдвигаются предложения по совершенствованию национального законодательства.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida jinoyat qonunchiligini insonparvarlik tamoyillari asosida liberallashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, jinoyat sodir etgan shaxsni faqat jazolash emas, balki uni ijtimoiy hayotga qaytarish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va qayta tarbiyalash mexanizmlarini joriy etish muhimdir.

Amalda pushaymonlik instituti ana shunday mexanizmlardan biri bo‘lib, u jinoyat sodir etgan shaxsning chin dildan tavba qilishi, yetkazilgan zararni qoplashi hamda jinoyatning ochildishiga ko‘maklashishi orqali uni javobgarlikdan ozod qilish imkonini beradi. Ushbu institutning asosiy vazifasi - jazolashdan ko‘ra tarbiyaviy choralar orqali jinoyatchining jamiyatga integratsiyasini ta‘minlashdan iborat.

Biroq, mazkur institutning amaliy qo‘llanishida qator muammo va kamchiliklar mavjud. Jumladan, “chin ko‘ngildan pushaymonlik” tushunchasining aniq mezonlari qonunchilikda to‘liq belgilab berilmaganligi, zarar qoplash imkoniyatlari cheklanganligi, sud-amaliyotida yagona yondashuv shakllanmaganligi ushbu institutning samaradorligini pasaytiradi.

Shu sababli, amalda pushaymonlik institutini yanada samarali qo‘llash uchun uning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati mavjud.

Jinoyat qonunchiligining asosiy vazifalaridan biri jinoyat sodir etgan shaxslarni jazolash orqali ijtimoiy adolatni tiklash va jinoyatlarning oldini olishdan iboratdir. Shu bilan birga, jinoyat huquqi jinoyatchilarning ijtimoiy hayotga qaytishiga sharoit yaratishni ham ko‘zda tutadi. Maqolada tadqiqotning maqsadi shundan iboratki – aybiga pushaymonlik institutini huquqiy, amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ushbu institutni takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi[1]. Shaxs o‘zi sodir etayotgan harakatining qonun bilan qo‘riqlanadigan obektlarga hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga zarar yetkazishini anglab turib bu harakatni davom ettirishi bu qasddan sodir etilgan jinoyat hisoblanadi.

Milliy qonunchiligimizda so‘nggi yillarda bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish masalalariga alohida urg‘u berilmoqda. Dunyo miqyosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini takomillashtirishga, muqobillashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqdaki, barcha davlatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ta‘minlash davlatning majburlov kuchiga emas, balki shaxs va davlat, jamiyat o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jamiyat va davlat barqarorligi hamda taraqqiyotining asosiy maqsadi sifatida e‘tirof etilgan. Jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti alohida institutlardan biri hisoblanib, jahon miqyosida

sud-tergov amaliyotida aybdorning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganda javobgarlikdan ozod qilish bo'yicha turli tuman amaliyot mavjud bo'lsada, jinoyat qonunchiligida jazolash kuchidan samarali foydalanish, ko'p hollarda kuzatilmoqda deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining II-bo'limi "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" deb nomlangan[2]. Taraqqiyot strategiyasining 14-maqsvadi "Qonun ustuvorligi va konstitutiaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatifa belgilash" deb nomlangan. Bu maqsadning vazifalaridan biri "jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish" hisoblanadi. Aynan biz tatqiq etayotgan tatqiqot obekti bo'lgan aybdorning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobarlikdan ozod qilish institutining asosiy mezoni ham insonparvarlik tamoyili hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi ham bunda o'z aksini topadi.

Bugungi kunda aybdorni o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish amaliyotini kriminologiyasiga nazar soladigan bo'lsak, bu amaliyot asosan sudga qadar bo'lgan jarayonda amalga oshirilishini hisobga olganda odatda surishturivchi va tergovchilar tomonidan tergovga qadar tekshiruv, tergov va surishtiruv bosqichida amalga oshiriladi. Aybiga pushaymonlik – bu jinoyat sodir etgan shaxsning o'z xatti-harakatlaridan afsuslanishi va jinoyat qonunchiligida belgilangan talablar asosida javobgarlikdan ozod qilinishiga asos bo'luvchi holatdir. Bu institutning asosiy maqsadi jinoyatchini jazodan ko'ra, uning ijtimoiy tuzilishga qaytishini rag'batlantirishdir. Aybiga pushaymonlik instituti qadimdan mavjud bo'lib, uning asoslari Sharq mamlakatlarida va Rim huquqida ko'rinish bergan. Masalan, Sharq huquqiy tizimida jinoyatchining qilgan gunohidan tavba qilish va zararni qoplash orqali jazodan ozod bo'lish imkoniyati ko'zda tutilgan. Zamonaviy huquqiy tizimlarda bu institut ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari aybiga pushaymonlikni javobgarlikdan ozod qilishning asosiy shakllaridan biri sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 66-moddasida aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish belgilangan bo'lib, moddaga ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Moddiy huquq normasida belgilangan tartibni amalga oshirilish mexanizmi protsessual huquq nomasida aksini topadi. Jinoyat kodeksining ushbu

normasida keltirilgan qoidani amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 84-moddasi, 5-qismi, 2-bandida belgilangan. Ushbu moddaga ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish amaliyotini tahlil qilishning jinoyat qonunchiligida ahamiyati shundan iboratki:

-birinchidan, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning jinoyat- huquqiy jihatlariga doir O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish zaruratining vujudga kelganligi;

-ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida mazkur masalani ilmiy o'rganishning nihoyatda zarurligi, bu sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramay, shu kungacha ushbu mavzuning jinoyat-huquqiy jihatlariga bag'ishlangan kompleks tadqiqotlar olib borilmagan;

-uchinchidan, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning jinoyat- huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalarning ilmiy va nazariy jihatidan tadqiq etilishi lozimligi hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda so'nggi besh yilda qayd etilgan jinoyatlar soni 2 barobar oshgan bo'lib, masalan 2019-yilda 46 ming jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2023-2024-yilda mamlakatimizda 104 096 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lib, jami jinoyatlar soni mamlakat bo'yicha har 100 ming aholiga 289 tadan to'g'ri kelgan. Ushbu jinoyatlarning 41,5 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 26,4 foizi uncha og'ir bo'lmagan, 28 foizi og'ir, 4,1 foizi o'ta og'ir jinoyat sifatida malakalangan jinoyatlardir[3]. Nazar soladigan bo'lsak jinoyatlarni salmoqli qismi aynan ijtimoiy havfi katta bo'lmagan(41,5) va uncha og'ir bo'lmagan (26,4) uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tashkil etadi. Qonunchilikda ushbu institutni qo'llanilish statistikasiga ko'ra amaliyotda nisbatan kam holatlarda qo'llanilishini kuzatishimiz kumkin. Chunki moddada belgilangan talablarni barchasi bajarilgan taqdirda ushbu modda qo'llanilishi mumkin bo'ladi. Masalan, aybdor o'z qilmishiga chindan ham amalda pushaymon bo'ldi, birinchi marta belgilangan turdagi jinoyatni sodir etdi, lekin yetkazilgan zararni qoplashga uni qurbi yetmaydi. Xo'sh ushbu holatda qanday bo'ladi? Yoki aksincha, aybdor zararni qoplad, lekin qilgan ishidan umuman pushaymon emas. Ushbu holatda JK 661-moddani qo'llash mumkin bo'lishi mumkin lekin jabrlanuvchi rozi bo'lmaganda qanday yechim topiladi. Ya'ni bu yerda aybdorning ichki kechinmalari, ruhiy holati asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Aynan shu jihatni o'zini ajratib olinmaganligi ushbu moddaning qo'llanish samarasini kamaytiradigan jihat hisoblanadi. Bunda ilgari surilayotgan maqsad aybdorning haqiqatdan ham o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligini

aniqlashdir. Bu esa o'z o'rnida tergov va sud jarayonida o'z aksini topadi hamda aybdorning hissiy-ruhiy holatidan kelib chiqib baho beriladi. Shu o'rinda huquqshunos N.Muxtorov o'z maqolasida "amalda pushaymon bo'lish instituti jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etish uchun asos bo'lib, jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh etish va uning oqibatlarini bartaraf qilish maqsadida fuqarolarni huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikka undashga, shuningdek, ushbu toifa shaxslarning jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilishini kafolatlashga zamin yaratadi" deya ta'kidlab o'tgan[4,B.2]. Shuningdek, jinoiy javobgarlikdan ozod etish masalalari yuzasidan tadqiqot olib borgan Rossiyalik olim A.A.Kostarevaning fikriga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning fikriga ko'ra "jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat huquqiy munosabatning tugatilganligini anglatadi. Davlat shaxsni javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilgan odil sudlov organlari timsolida sodir etilgan qilmishi uchun aybdorni jazolash borasidagi o'z huquq va majburiyatlaridan voz kechadi" degan fikr bildirgan, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxs esa qonunda nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum bo'lish majburiyatidan hamda sodir etilgan jinoyat oqibati hisoblangan majburlov choralari xalos bo'ladi[5,B.41-42]. Shuningdek, o'zbek huquqshunos olimi M.Usmonaliyevning fikriga ko'ra "jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan shaxsni aybsiz deb topmagan holda, balki javobgarlikdan ozod qilish ekanligini nazarda tutgan. Ya'ni qo'shimcha o'rnida jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxs fuqaroviy huquqiy majburiyatlardan ozod qilinmaydi"-deb ta'kidlagan. [6. B.532]. Lekin bizning fikrimizcha huquqshunos olim M. Usmonaliyevning fikrlari ilmiy va faktik jihatdan eng maqbuli hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga nazar solinadigan bo'lsa, masalan, Rossiya davlati jinoyat qonunchiligida aybga pushaymonlik instituti keng qo'llanib kelinadi. Rossiya Jinoyat kodeksida ko'ra aybdorning o'z aybga chin ko'bgildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishga qo'yilgan talablar bizning Jinoyat kodeks talablari bilan deyarli bir hil.

AQShda esa bu institut "Plea bargaining" (kelishuv asosida jazoni yengillashtirish) tizimi sanalib, aybga pushaymonlikning kengroq ko'rinishi hisoblanib, milliy qonunchiligimizda esa JPKning 113-moddasi mazmunidan kelib chiqadi. Germaniyada esa ushbu institut keng qo'llanilib, asosan jinoyatchining ijtimoiy munosabatlarga qaytishi uchun rehabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari Janubiy Koreya Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida faqatgina hukmning ijro etilmaganligi munosabati bilan ozod qilish, jazodan esa muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kabi turi belgilangan [7].

Xulosa. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish amaliyotini qo'llashda o'tkazilgan tahillarga ko'ra asosiy muammolar:

-normativ-huquqiy aniqlikning yetishmasligi: jinoyat kodeksida amalda pushaymonlikning umumiy shartlari belgilangan bo'lsa-da, "chin ko'ngildan pushaymonlik", "jinoyatning

ochilishiga faol yordam berish” kabi tushunchalar mazmun jihatidan aniq ochib berilmagan. Bu esa tergov va sud amaliyotida turlicha talqin qilinishiga olib kelmoqda;

-subyektiv yondashuvning xavfi: shaxsning chin dildan pushaymon bo‘lganligini aniqlash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagani sababli, ushbu jarayon ko‘proq tergovchi yoki sudyaning shaxsiy qarashlariga tayanadi. Natijada normani adolatli va bir xilda qo‘llanishi ta‘minlanmaydi;

-yetkazilgan zararni qoplashdagi muammolar: Qonunchilikda jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to‘liq bartaraf etish pushaymonlik shartlaridan biri sifatida belgilangan. Biroq, ba’zi hollarda aybdorning moddiy imkoniyatlari yetarli bo‘lmaydi. Bu esa institutdan foydalanishni cheklaydi va ijtimoiy adolat tamoyilini buzishi mumkin;

-qayta jinoyat sodir etish imkoniyatining kelib chiqishi: ayrim shaxslar ushbu institutdan foydalanib, javobgarlikdan qutulganidan so‘ng qaytadan jinoyat sodir etishi mumkin. Bu esa institutning profilaktik va tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradi;

-amaliyotda qo‘llashda yagona yechimning mavjud emasligi: tergov va sud amaliyotida amalda pushaymonlik institutining qo‘llanishida yagona yondashuv shakllanmagan. Natijada, nazariya va amaliyotda tafovutlar yuzaga kelib, o‘xshash jinoyatlar bo‘yicha turlicha qarorlar qabul qilinmoqda, bu esa huquqni qo‘llash birligini buzilishiga olib keladi.

Shunga ko‘ra, bu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish va ushbu institutni qo‘llash samaradorligiga erishish borasida quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Birinchidan, ushbu normani “aybdor jinoyatni ochilishiga ko‘maklashganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlash taklif etiladi. Bundan maqsad qonunda “chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish” mezonlarini sub‘ektiv talqinlardan himoya qiluvchi huquqiy aniqlik kiritish hamda “soxta pushaymonlik”ni oldini olish maqsadida tergov jarayonida “yolg‘on detektor”dan foydalanishni joriy etish orqali pushaymonlikning ijtimoiy-psixologik mezonlari batafsil aniqlash. Shunday qilinadigan bo‘lsa amalda pushaymonlik moddaning bir tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi hamda uming amaliyotda qo‘llanilishi kengayadi.

Ikkinchidan, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini yetarlicha o‘rganish hamda uni milliy qonunchiligizga implementatsiya qilish borasida rivojlangan davlatlarda pushaymonlik institutining qo‘llanilish mexanizmlari chuqur ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularni milliy qonunchilikka joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar yetarli emas. Shu sababdan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha qonun loyihasi ishlab chiqish orqali javobgarlikdan ozod qilish institutidagi ushbu normani qayta ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi.

Uchinchidan, normaning umumiy talablaridan biri bo‘lgan yetkazilgan zararni qoplash mexanizmini soddalashtirish borasida vositachilik ya‘ni mediatsiya institutidan keng foydalanishni joriy etish. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra jinoyat ishlarida mediatsiya institutidan

foydalanish belgilanmagan. Ammo ushbu institutdan foydalanish orqali zararni qoplashda qiyinchilikka uchragan ayblanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasida mediativ kelishuv tuzish orqali ayblanuvchining to'lovga qobiliyatli bo'lgunicha vaqt berish masalalarida kelishuvga erishish imkoni yaratiladi.

To'rtinchidan, statistik tahlilni yo'lga qo'yish natijasida Amalda pushaymonlik asosida javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar bo'yicha muntazam ravishda ochiq statistik ma'lumotlar e'lon qilish va ularni ilmiy tahlil qilish, javobgarlikdan ozod qilingan shaxslarni jamiyatga qayta uyishida ko'malashish maqsadida ularni ijtimoiy mehnat, ta'lim-tarbiyaga oid masalalar bo'yicha mas'ul organlarga biriktirish choralari ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aybiga pushaymonlik instituti jinoyat huquqining insonparvarlik tamoyillariga asoslangan muhim elementi hisoblanib, bu institutning rivojlanishi ijtimoiy adolat va jinoyatchilarni tuzatish jarayonini kuchaytiradi. Qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro tajribadan foydalanish va reabilitatsiya dasturlarini yo'lga qo'yish orqali ushbu institutning samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.22.09.1994. URL: <https://lex.uz/mact/-111453>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 28.01.2022 yil. PF-60-son. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. "Darakchi.uz" elektron jurnali. 2025. <https://darakchi.uz/en/197421>
4. N.Muxtorov Jazodan ozod etish asoslari: bu boradagi qonunchilik takomillashtiridi. //O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Axborotnomasi. 2011 yil, 1-son. – B.2 URL: <https://sud.uz/la/plenum-la/documents-criminal-la/>
5. Kostareva T.A. Teoreticheskiye voprosy osvobojdaniya ot ugolovnoy otvetstvennosti. Izd. "Nauka" – M.: 1974. B. 41-42. URL: <https://www.dissercat.com/content/differentsiatsiya-ugolovnoi-otvetstvennosti>
6. Usmonaliyev.M. Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T., "Yangi asr avlodi",2010,B.532. URL: <https://library-tsul.uz/jinoyat-huquqi-umumiy-qism-usmonaliyev-m-bakunov-p-2012/>
7. Criminal act of South Korea. Act. No 7623, Jul. 29, 2005. <https://www.oyecd.org>